

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2026 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2026 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Nurboy Jabborov, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshaboyeva, Zulkumor Xolmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Muzaffar Komilov (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Alizoda Saidumaran (Tojikiston)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Almaz Uvli (Ozarbayjon)	

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal. Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nozliya Normurodova

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Nurboy Jabbarov, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islamov, Bahodir Karimov, Saodat Muhamedova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Iroda Azimova, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Ziyoda Teshabaeva, Zulxumor Kholmonova, Z.Ortiqova, Komil Kalonov, Botir Elov, Manzura Abjalova, Rasul Atamuratov.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Muzaffar Komilov (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Tanju Seyhan (Turkey)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Almaz Uvli (Azerbaijan)	

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

O'zbek tilshunosligida Qur'oni Karim teolingvistik tadqiqot
obyekti sifatida6

Dilrabo ELOVA

Normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy ekspertiza
qilish metodologiyasi (Soliq kodeksining 248-moddasi misolida)24

Вафа Абдуллаева-Набиева

Развитие синтаксиса азербайджанского языка в рамках
лингвокультурологии40

Kamil Tilyabayev

O'zbek tili: o'rganish, dekolonizatsiya va hissiyot58

Shaxlo Naraliyeva

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik
tadqiqi (O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)82

ADABIYOTSUNOSLIK

Gulbahor Ashurova

Turkum she'rlar – Alisher Navoiy obrazini yaratishda lirik
vosita sifatida.....95

Abdug'ani Nasriddinov

Adabiyotda falsafa va dinning uyg'unligi108

FAN. TA'LIM. METODIKA

Umidjon Kushayev

Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi: institutsional
transformatsiya va strategik model (O'zbekiston misolida)120

Мадина Назарова

Формирование иноязычной риторической компетенции на
материале английского официально-делового дискурса в
неязыковом вузе133

TARIX. MANBASHUNOSLIK

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar va o'g'uz turklari149

Ilhami Cəfərsəy

Avrasiyanın qədim Xivə, Samara və Buxara şəhərləri172

CONTENT

LINGUISTICS

Dilfuza Nurmanova, Nodirabegim Ismoilova

The Holy Qur'an as an Object of Theolinguistic Research in
Uzbek Linguistics.....6

Dilrabo Elova

Methodology of Linguo-Logical Expertise of Normative Legal Texts24

Vafa Abdullayeva-Nabiyeva

Development of the Syntax of the Azerbaijani Language Within
the Framework of Linguoculturology40

Kamil Tilyabaev

Uzbek Language: Acquisition, Decolonisation and Emotions58

Shakhlo Naralieva

A Cognitive-Pragmatic Study of Environmental Discourse in Uzbek
Fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad).....82

LITERATURE

Gulbahor Ashurova

Cycle of Poems as a Lyric Device in the Creation of the Image of
Alisher Navo'i95

Abdugani Nasriddinov

The Harmony of Philosophy and Religion in Literature108

SCIENCE. EDUCATION. METHODOLOGY

Umidjon Kushaev

Integration of Artificial Intelligence into the Education System: Institutional
Transformation and Strategic Model (Uzbekistan as an Example)120

Madina Nazarova

Formation of Foreign-Language Rhetorical Competence Through
English Official-Business Discourse in Non-Language Higher Education...133

HISTORY. SOURCE STUDIES

Shamsiddin S. Kamoliddin

Samanids and Oghuz Turks149

Ilhami Jafarsoy

Ancient Khiva, Samara and Bukhara Cities of Eurasia172

O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi

(O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)

Shaxlo Naraliyeva¹

Abstrakt

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning konseptuallashuvi kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik jihatdan kompleks tadqiq etiladi. Tadqiqotning empirik obyekti sifatida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshidagi o'zbek romanchiligining eng yorqin namunalari – O'tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” va Tog'ay Murodning “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” romanlari tanlab olingan. Ishda ilk bor o'zbek nasridagi ekologik mavzuga doir matnlarning 7 ta funksional-kommunikativ tipi batafsil tasniflandi va ekologik diskursning yadro-periferiya tamoyiliga asoslangan kompleks maydon modeli (field model) ishlab chiqildi.

Maqolada tabiat hodisalari va elementlari (yomg'ir, yer, suv, tuproq) obrazlarining milliy kognitiv modellar hamda mental stereotiplar asosida baholanishi, ularning ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy inqirozlarni verballashtirishdagi pragmatik funksiyasi va deontik kuchi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning zamonaviy tarmoqlari bo'lmish lingvoekologiya, pragmalingvistika va matn lingvistikasi sohalarini yangi nazariy xulosalar va metodologik yondashuvlar bilan boyitadi.

Kalit so'zlar: *ekologik diskurs, kogniotip, maydon modeli, o'zbek romanchiligi, lingvoekologiya, pragmalingvistika, aksiologik baho, konseptuallashuv, deontik modallik, antropotsentrizm, freym tahlili, aksiologik shkalalash.*

Kirish

Antropotsentrik paradigmaning zamonaviy tilshunoslikdagi ustuvor pozitsiyasi til birliklarini an'anaviy ichki tizim (strukturalizm) chegarasidan olib chiqib, inson omili, uning tafakkuri, dunyoqarashi, milliy madaniyati va atrof-muhit bilan uzviy aloqadorlikda o'rganishni taqozo etmoqda. XX asrning

¹ Shaxlo Naraliyeva – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, Qozog'iston Respublikasi, Jumabek Tashenev nomli universitet.

E-pochta: naraliyeva04@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5064-2605

Iqtibos uchun: Naraliyeva, Sh. 2026. “O'zbek badiiy prozasida ekologik diskursning kognitiv-pragmatik tadqiqi (O'tkir hoshimov va Tog'ay Murod asarlari misolida)”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 82 – 94.

so'nggi choragida tilshunoslik olamida inson markaziga aylangan tadqiqotlar tizimi yana bir yangi tarmoq – lingvoekologiyaning (ekologik lingvistika) yuzaga kelishini ta'minladi. Bu soha til va atrof-muhitning o'zaro dinamik mutanosibligini, tilning tabiatni asrash yoki vayron qilishdagi ijtimoiy va psixologik kuchini tadqiq etadi. Tilning ekologik funksiyasi nafaqat lisoniy tizimning sofligini saqlash, balki insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini til vositasida sog'lomlashtirishdan ham iboratdir.

Zamonaviy filologik qarashlarga ko'ra, til faqatgina tashqi voqelikni aks ettiruvchi passiv ko'zgu emas. U insonning tabiatga, jonli va jonsiz borliqqa bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi murakkab kognitiv-pragmatik tizimdir. Inson olami va tabiat olami o'rtasidagi muloqot aynan til vositasida kodlashtiriladi va dekodlashtiriladi. Demak, til bizning atrof-muhit haqidagi tafakkurimizni quruvchi asosiy ramziy qurilmadir. Agar tilda tabiatga nisbatan iste'molchilik, tajovuzkorlik kayfiyati ustuvor bo'lsa, bu jamiyatning real ekologik xatti-harakatlarida ham vayronkorlik sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli badiiy matnlardagi ekologik kodlarni o'rganish faqat lingvistik emas, balki chuqur ijtimoiy-filosofik ahamiyatga ega.

Global ekologik inqirozlar, Orol fojiasi, tuproqlarning kimyoviy zaharlanishi va shiddatli antropogen ta'sirlar kuchaygan bugungi davrda jamiyatda ekologik ong, mas'uliyat va madaniyatni qayta tiklash hamda shakllantirish maqsadida ekologik mazmundagi matnlarni va ularning diskursiv xususiyatlarini o'rganish sohaning eng dolzarb, konseptual vazifalaridan biriga aylandi. Badiiy adabiyot esa inson ichki dunyosiga ta'sir etuvchi eng kuchli vosita sifatida, ekologik inqirozlarni faqat faktlar bilan emas, balki jonli obrazlar va lisoniy metaforalar orqali idrok etishga yordam beradi. Badiiy proza o'zining tasviriy imkoniyatlari tufayli insoniyat duch kelgan ekologik tahdidlarni individuallashtiradi, ularni har bir kitobxonning shaxsiy ruhiy fojiasi darajasiga ko'taradi.

Ekologik matnlar va ularning o'rganiлиш тарихи

Ekologik matnlar va ularning janr tarkibini o'rganish sohasida xorij va mahalliy tilshunoslikda muayyan darajada nazariy va metodologik baza shakllangan. XX asrning 90-yillaridan boshlab tilshunoslikda ekologik muhit va til ekologiyasi masalalari keng muhokama qilina boshladi. Xususan, nemis tilshunosligida U.Xass-Sumker ekologik matnlarning ijtimoiy transchegaraviy xarakterini, ularning ilmiy sohadan ommaviy makonga ko'chish

xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa [Hass-Zumkehr 1997, 1363–1369], rus tilshunosligida Y.V.Ivanova mediamatnlardagi ekologik metaforalarning siyosiy va ijtimoiy manipulyatsiya vositasiga aylanishini kognitiv yo'nalishda o'rgandi [Ivanova 2007, 219]. Z.I.Lominina esa ekologik matnlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini aniq predmet sohalari (masalan, «Загрязнение среды») bo'yicha tasniflab, tizimli tahlilga tortdi [Lominina 2011, 224]. Ushbu tadqiqotchilar ekologik yo'nalishdagi matnlarni o'rganishda tildan tashqaridagi (ekstralingvistik) omillarning roliga alohida urg'u berganlar.

V.I.Shaxovskiy va uning ilmiy maktabi vakillari esa lingvoekologiyani lingvokulturologiya va emotsional lingvistika kesimida tadqiq etib, tilning inson ichki olamini va tashqi muhitni zaharlovchi “lisoniy ifloslanish” (linguo-pollution) hodisalarini o'rgandilar. Ularning fikricha, inson nutqidagi agressiya, qo'pollik va destruktiv metaforalar atrof-muhitga bo'lgan vayronkor munosabatning to'g'ridan-to'g'ri proyeksiyasidir. G'arb tilshunosligida A.Stibbe kabi olimlar esa “ekokrititsizm” (ecocriticism) va “ekolingvistika” (ecolinguistics) tushunchalarini badiiy matnlar tahliliga izchil tatbiq etib, har qanday badiiy asar zahirida muallifning ekologik ideologiyasi yashiringan bo'lishini isbotlab berdilar.

O'zbek va qoraqalpoq filologiyasida ham bu borada dastlabki qadamlar qo'yilgan. Xususan, adabiyotshunoslik va tilshunoslik kesimida ekologik tafakkurning badiiy matnda aks etishi, milliy lingvomadaniy kodlarning tabiat tasviri (peyzaj) va ekologik falokatlar bilan bog'liq jihatlari Q.Jarimbetov va boshqa qator olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan [Jarimbetov 2014, 180]. Biroq o'zbek tilshunosligida bevosita matn lingvistikasi va pragmalingvistika nuqtayi nazaridan badiiy matnlardagi ekologik metaforalarning kognitiv tabiati maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud ishlarda asosan tabiat tasvirlarining badiiy-estetik vazifalari tahlil qilingan bo'lib, ularning kognitiv-pragmatik salohiyati va matn yaratuvchilik xususiyatlari e'tibordan chetda qolib kelayotgan edi.

Postsovet makonidagi ekologik va ijtimoiy o'zgarishlar, xususan, O'zbekiston hududida o'tgan asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan shafqatsiz paxta yakkahokimligi (monokultura), Orol dengizining qurishi, kimyoviy o'g'itlarning haddan tashqari ko'p qo'llanilishi va tizimli majburiy mehnat holatlari o'zbek badiiy prozasida nafaqat iqtisodiy muammo, balki chuqur ijtimoiy-ekologik

va ma'naviy fojia sifatida muhrlandi. Yozuvchilar davrning ushbu og'riqli nuqtalarini tilning yashirin pragmatik imkoniyatlari orqali badiiy matnga olib kirdilar. O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod asarlari bu borada eng boy empirik material hisoblanadi. Bu ijodkorlar o'z asarlarida ekologik inqirozni ijtimoiy va siyosiy adolatsizlikning bevosita oqibati sifatida kognitiv freymlarga joylashtirganlar.

Ekologik makonning tarkibiy qismlari

Tadqiqotda aniqlanishicha, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" ijtimoiy-fan sohasi doirasidagi asosiy matn janrlari yuqori darajada tabaqalashgan ilmiy, huquqiy, ommaviy va badiiy makonni tashkil etadi. Bu makon ekologiya sohasidagi davlat qonunchiligi, xalqaro konvensiyalar, ilmiy tadqiqotlar, ekologik ta'lim, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi axborot va bilim almashinuvi, shuningdek, alohida global va lokal ekologik muammolar bo'yicha maxsus bilimlarni mutaxassislar va mutaxassis bo'lmagan keng ommaga yetkazish jarayonlarini qamrab oladi.

To'plangan ma'lumotlarni tizimlashtirish va lingvistik klassifikatsiya qilish natijasida ekologik diskursning janrlar iyerarxiyasini va ularning pragmatik kuchini aks ettiruvchi yaxlit konseptual maydon modeli ishlab chiqildi. Mazkur model 1-jadvalda o'z aksini topgan.

1-jadval. Ekologik diskurs maydonining tarkibiy-funksional tuzilishi.

Maydon zonalari	Yetakchi sub-diskurslar	Asosiy kommunikativ maqsad	Ekologik nutq janrlari (misollar)
Yadro (Core)	Ilmiy va Yuridik subdiskurs	Ekologik muammolarni ilmiy asoslash, qonuniy, normativ va majburiy tartibga solish	Ekologik qonunlar, xalqaro kodekslar, davlat standartlari (GOST), monografiyalar, ekspert xulosalari, dissertatsiyalar
Yadrooldi zonasi (Near-core)	OAB va Медиа суб-дискурси	OAV va Media subdiskursi jamoatchilik fikrini shakllantirish, ekologik xavf-xatarlardan xabardorlikni oshirish, ijtimoiy faollikka undash	Ekologik reportajlar, tahliliy maqolalar, intervyular, ijtimoiy reklamalar, ekologik chaqiriqlar
Yadrodan uzoq zona (Sub-periphery)	badiiy va didaktik subdiskurs	Estetik va emotsional-psixologik ta'sir ko'rsatish, milliy va umuminsoniy axloqiy-ekologik qadriyatlarini singdirish	Romanlar, hikoyalar, qissalar, ecological lirika (she'riyat), matl va maqollar, ekologik mazmundagi rivoyatlar
Periferiya (Periphery)	Kundalik-maishiy subdiskurs	Shaxsiy kundalik tajriba, taassurot va atrof-muhitga bo'lgan individual subyektiv munosabatni ifodalash	Og'zaki kundalik suhbatlar, blog postlari, ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Facebook va h.k.) izohlar, fikr-mulohazalar

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, maydonning har bir zonasi o'ziga xos pragmatik vazifaga ega. Agar yadro zonasi deontik

modallikka (majburiyat, taqiqlash) asoslangan bo'lsa, yadrodan uzoq zona aksiologik (baholash) va emotsional modallik asosiga quriladi. Bu zonalar bir-biridan butunlay ajralgan emas, balki ular o'rtasida doimiy diffuziya (utish) jarayoni sodir bo'ladi. Masalan, ilmiy faktlar badiiy matnga ko'chib o'tganda emotsional bo'yoq oladi va yadrodan uzoq zonaga transformatsiya bo'ladi.

Aks ettirilgan sotsio-funksional maydon modeli bilan bir qatorda, badiiy va ijtimoiy matnlarning ichki semantik xususiyatlaridan, ulardagi til birliklarining qo'llanilish xarakteridan kelib chiqib, ularning kommunikativ-funksional yo'naltirilgani asosida ekologik matnlarning yangi 7 ta tipi tasniflandi. Bu tiplar badiiy asar tarkibidagi ekologik mikromatnlarni to'g'ri differensiatsiya qilishga imkon beradi. Har bir tip o'ziga xos lingvistik markerlarga ega.

Ekologik matnlarning funksional-kommunikativ modellari va lisoniy xususiyatlari

1. Ekologik-narrativ tip (voqeaband bayon): Tabiat bilan bog'liq bo'lgan dinamik voqealar, ekologik o'zgarishlar yoki ofatlarning inson shaxsiy tajribasi, xotirasi yoki bevosita guvohligi orqali izchil, xronologik monolog yoki dialog shaklida ifodalanishi. Bu yerda o'tgan zamon fe'llari, ketma-ketlikni bildiruvchi ravishlar va harakat fe'llari yetakchilik qiladi. Bu tip voqealar rivojini dinamikada ko'rsatadi.

2. Ekologik-tasviriy tip (dyetallashtirish): Muayyan landshaft, o'simlik va hayvonot dunyosining statik holati hamda ularning antropogen (inson) noto'g'ri ta'siri natijasida vayron bo'lishi, sho'rlanishi, zaharlanishi va qurishining badiiy detallar, sifatlashlar yordamida batafsil tasvirlanishi. Bu tipda sifatlar, otlar, metaforik o'xshatishlar keng qo'llaniladi va o'quvchi ko'z o'ngida vizual manzara yaratadi.

3. Ekologik-argumentativ tip (mantiqiy asoslash): Ekologik muammolar, inqirozlar va ular keltirib chiqaradigan ijtimoiy-biologik oqibatlarining qat'iy sabab-natija aloqadorligi (logikasi) asosida, matnda "chunki", "shuning uchun", "natijada", "buning oqibatida" kabi mantiqiy konnektorlar (bog'lovchilar) yordamida isbotlanishi va asoslanishi. Bu yerda murakkab ergashgan gapli qurilmalar markaziy o'rinda turadi.

4. Ekologik-didaktik tip (tarbiyaviy ta'sir): Insonning tabiatga, yerga va suvga nisbatan axloqiy, ma'naviy majburiyatlarini pand-nasihat ruhida, ijtimoiy taqiqlar, milliy maqol, matal yoki ramziy

obrazlar vositasida o'quvchi ongiga singdirishga yo'naltirilgan matnlar. Bu yerda buyruq mayli, shart mayli shakllari hamda aforizmlar ko'p uchraydi va deontik kuchga ega bo'ladi.

5. Ekologik-informativ tip (faktlar tizimi): Muayyan hududning real ekologik holati, atmosfera, havo yoki tuproq tarkibi, suv darajasi haqidagi quruq, obyektiv, aniq va raqamlashtirilgan statistik faktlar va ko'rsatkichlarning berilishi. Matnda sonlar, o'lchov birliklari, sof ilmiy va geografik terminlar ustuvor bo'ladi, pragmatik baho neytral bo'ladi.

6. Ekologik-instruktiv tip (normativ buyruq): Tabiatdan foydalanish me'yorlari, ekologik xavfsizlik qoidalari, qonuniy taqiqlari va ogohlantirishlarini ifodalovchi, tarkibida deontik-imperativ shakllari bo'lgan normativ matn parchalari. Lingvistik markerlari – "shart", "lozim", "ta'qiqlanadi", "huquqiga ega" kabi modal so'zlardir.

7. Ekologik-ekspressiv tip (emotsional-poetik): Inson va tabiatning chuqur metaforik uyg'unligi (psixologik parallelizm), tabiat inqirozi va ekologik ofatlar fonida insonning ichki ruhiy iztirobi, sog'inchi, fojiasi va dardining yuqori badiiy-ramziy, troplarga boy til vositalari orqali ifodalanishi. Bu yerda ritorik so'roqlar, undovlar, jonlantirish (personifikatsiya) va giperbolalar yetakchi rol o'ynaydi va perlokutiv ta'sir kuchini eng yuqori darajaga ko'taradi.

Diskurslar klassifikatsiyasiga turli yondashuvlar

Ekologik diskurs tipologiyasini va uning til tizimidagi o'rnini ishlab chiqishda zamonaviy jahon tilshunosligida turlicha konseptual yondashuvlar mavjud. Masalan, M.M.Mironova diskurslarni faqat an'anaviy ijtimoiy faoliyat sohalariga (institut-sional belgilariga) ko'ra ajratishni taklif qilsa [Mironova 2023, 192–205], L.M.Alekseyeva va S.L.Mishlanova o'z tadqiqotlarida bilimlarning jamiyatda taqsimlanish darajasi va xarakteriga ko'ra naiv (oddiy), amaliy, kasbiy va ilmiy turlarni farqlaydi [Aleksyeva 2002, 200]. Bizning tadqiqotimizda taklif etilgan va qo'llanilgan kompleks maydon modeli (field model) esa ushbu konsepsiyalarni sintez qilgan holda, til birliklarining pragmatik kuchini, stilistik transformatsiyasini va badiiy kontekstdagi dinamikasini tizimli baholashga keng imkon beradi. Maydon tamoyili til hodisalarini statik emas, balki uzluksiz harakatdagi tizim sifatida tadqiq etishga yo'l ochadi.

Z.I.Lominina o'z ishlarida ekologik matnlarni deontik (qonunlar), aksiologik (baholovchi) va epistemik (informativ)

turlarga ajratib, ularning nazariy asosiga “kogniotip” tushunchasini qo‘yadi [Lominina 2000, 224]. Nutqiy janrlarni tavsiflash uchun muhim bo‘lgan “kogniotip” tushunchasi muayyan fan yoki ijtimoiy faoliyat sohasiga oid matnlar majmuasida barqaror mavjud bo‘lgan til va tafakkur birligini, ya‘ni matnning tipik kognitiv-struktur andozasini ifodalaydi. Kogniotipning tasniflovchi iyerarxiyasi muayyan semantik belgilar asosida qurilib, ular asosan “atrof-muhitning ifloslanishi” (salbiy kuch) va “atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish” (ijobiy kuch) kabi tayanch oppozitsion tushunchalarga tayanadi. Mazkur oppozitsiya badiiy matnda "inson va tabiat uyg'unligi" hamda "insonning tabiatga tajovuzi" shaklidagi konseptual ziddiyatni yuzaga keltiradi.

A.G.Baranov matnning kogniotipi jamoaviy xotira va ijtimoiy tajriba mahsuli ekanini ta'kidlaydi [Baranov 1997, 4–12]. Biroq ushbu tadqiqotlarda badiiy adabiyotning, xususan, o‘zbek romanchiligining o‘ziga xos lingvopoetik va lingvokulturologik tabiati to‘liq ochib berilmagan. Vaholanki, badiiy matn insonning qadriyatlar tizimiga va ekologik ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli pragmatik vositalardan biridir. Ayniqsa, milliy til sohiblarining dunyoni ramziy idrok etish konsepsiyasi doirasida badiiy matnlar orqali tabiat hodisalari nafaqat real fizik voqelik sifatida, balki milliy-madaniy, falsafiy va subyektiv psixologik idrok mahsuli sifatida namoyon bo'lishini isbotlash mumkin. O‘zbek xalqining tafakkurida tuproq, suv va havo ilohiy va muqaddas asoslarga ega bo‘lib, ularning badiiy matndagi destruksiyasi milliy inqiroz sifatida idrok etiladi.

O‘tkir Hoshimov romanlarida ekologik freymmlar tahlili

Buni o‘zbek adabiyotining durdonalari va XX asr ijtimoiy realligini yuqori badiiy bo‘yoqlarda aks ettirgan romanlar tahlilida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidagi ushbu tasvirga e’tibor qarataylik:

“Odomni qon qilib yuboradigan kuz yomg‘irlari boshlandi. Barakning shifer tomidan chakka o‘tib hammayoq zaxlab ketdi. Paxta tugul podbor ham qolmagan, ammo yomg‘ir tinishi bilan ularni dalaga haydashar, talabalar biydek paxtazorda tentirab yurishar, har qadamda etikka botmon-botmon loy yopishib, marzalarning u uyeybu yerda to‘kilib qolgan ko‘rak aralash loy paxtani etakka tiqishar edi” [Hoshimov 2015, 320].

Ushbu matn kognitiv-semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinganda, insoniyat uchun aslida hayotiy va ijobiy ramz bo‘lgan, baraka belgisi hisoblangan tabiiy hodisa — “kuz yomg‘iri”ning inson

tomonidan sof salbiy, destruktiv baholanishi (aksiologik aspekt) namoyon bo'ladi. Lingvistik darajada bu o'rinda "odamni qon qilib yuboradigan kuz yomg'irlari" frazeologik xarakterdagi metaforasi markaziy semantik o'rin tutadi. Mazkur obrazli ifoda milliy kognitiv model va davr konnotatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, tabiat hodisasining o'z tabiatidan emas, balki o'sha davrdagi nosog'lom ijtimoiy-ekologik va siyosiy muhitdan tug'ilgan.

Ya'ni, talabalarning sovuq, zax va loy sharoitda majburiy mehnatga (paxta kurashiga) jalb etilishi oqibatida yuzaga kelgan ichki ruhiy iztirob tabiat obraziga ko'chirilmogda (intensional pragmatika). Tabiat (yomg'ir, loy) va inson (talaba) munosabati bu yerda an'anaviy sharqona uyg'unlikda emas, balki mustabid ijtimoiy tizim keltirib chiqargan sun'iy ziddiyat kontekstida aks etmogda. "Botmon-botmon loy", "loy paxta", "barakning zaxlashi" kabi til birliklari nafaqat lirik tasvir, balki ekologik va ijtimoiy inqirozning verballashgan shaklidir. Yozuvchi bu yerda ekologik-ekspressiv va ekologik-narrativ tipni qorishtirib, o'quvchida tizimga nisbatan kuchli pragmatik norozilik hissini uyg'otadi. Kuz yomg'iri bu yerda baraka emas, zulm ramziga aylantirilgan.

O'tkir Hoshimov ijodida ekologik diskursning yana bir qirrası – zaharli kimyoviy moddalarning (defoliantlarning) qo'llanilishi bilan bog'liq freymlardir. Romanning boshqa bir qismida shunday deyiladi:

"Dala ustida "kukuruznik" samolyotlar tinmay zahar separ, havodan achqilq, tomoqni kuydiradigan hid anqir edi. Paxta barglari to'kilishi kerak edi, lekin barglar bilan birga dala chetidagi tutlar ham quridi, ariqlardagi baliqlar qornini osmonga qilib suzib qoldi. Odamlar esa o'sha suvdan ichishda davom etardilar".

Bu matnda ekologik-informativ va tasviriy tipning qorishishi kuzatiladi. Lingvistik jihatdan "zahar separ", "achqilq, tomoqni kuydiradigan hid", "baliqlar qornini osmonga qilib suzib qoldi" kabi ifodalar insonning tabiat ustidan o'rnatgan zo'ravonligini ko'rsatadi. Suv konsepsi o'zbek lingvokulturologiyasida "hayot manbayi", "muqaddas ne'mat" sifatida kodlangan bo'lsa, bu yerda u mustabid siyosat tufayli "o'lim tashuvchi vosita" freymiga transformatsiya qilinmogda. Muallif bu yerda ataylab sodda, ammo dahshatli tasvir orqali o'quvchi ongiga aksiologik ta'sir o'tkazadi. Baliqlarning o'limi – ekotizim halokatining badiiy signalidir.

O'tkir Hoshimov asarlaridagi ekologik diskursning pragmatik mazmuni jamiyatdagi ma'naviy inqiroz bilan parallel ravishda rivojlanadi. Masalan, "Tushda kechgan umrlar" romanida paxta

rejasini bajarish yo'lida inson qadr-qimmatining toptalishi atrof-muhitning zaharlanishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi. Bu yerda biz tilning ijtimoiy-ekologik destruktivlikni (socio-ecological destructiveness) aks ettiruvchi o'ziga xos kognitiv metaforalar tizimini ko'ramiz. Majburiy mehnatga haydalgan insonlar ham, zaharlangan tabiat ham yagona bir mustabid mashinaning qurbonlari sifatida yagona konseptual maydonga birlashadi.

Tog'ay Murod uslubi va etnolingvistik kodlar

Xuddi shunday konseptual model va tizimli lingvoekologik tanqid Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida ham izchil va o'ziga xos milliy koloritda kuzatiladi [Tog'ay Murod 2001, 280]. Yozuvchi yer va suvning inson (aniqrog'i, sho'ro imperiyasi va mahalliy lagabardor rahbarlar) tomonidan shafqatsizlarcha, vahshiyona ekspluatatsiya qilinishini, Orol dengizining fojiali qurishi va vohalarning sho'rlanishini o'ziga xos takrorlanmas milliy-ekspressiv til birliklari va ritorik so'roqlar orqali ifodalaydi. Tog'ay Murod uslubida tabiat (Yer-ona) – Odam alayhissalomdan qolgan, asrab-avaylanishi shart bo'lgan muqaddas omonat, ilohiy ne'matdir. Ammo sho'rolar davri mafkurasi uni faqat "xomashyo bazasi"ga, plan to'ldirish quroliga aylantirgani asar matnida katta alam va kuchli pragmatik pafos bilan bayon etiladi.

Romanning til xususiyatlarida deontik (majburiyat) va aksiologik (baho) komponentlar qorishib ketadi. Masalan, – insonning baxti sho'r bo'ldi". Bu yerda olimlar ishlatadigan sof geografik/ekologik termin – "yerning sho'rlanishi" ijtimoiy-psixologik metaforaga aylantirilib, inson taqdiri fojiasi bilan lingvistik freymga joylashtirilmoqda. Yerning kimyoviy zaharlanishi xalqning ma'naviy va jismoniy zaharlanishi sifatida kognitiv transformatsiyaga uchraydi. Tog'ay Murodning tiliga xos bo'lgan ritorik takrorlar ekologik-ekspressiv matn modelini yaratadi:

> "Yerni bosdilar, yerni toptadilar! Yerga tinmay zahar berdilar, yerga tinmay dori berdilar! Yer ingradi, yer yig'ladi, ammo yerning dodini hech kim eshitmadi. Oxiri yerning sho'ri chiqdi! Yer o'z bag'ridan oq tuz chiqardi, bu tuz — yerniyang ko'z yoshlari edi!"

Ushbu parchada personifikatsiya (jonlantirish) usuli lingvoekologik diskursning eng oliy nuqtasiga chiqqan. Yerning "ingrashi", "yig'lashi", "ko'z yosh to'kishi" kabi metaforalar o'zbek xalqining totemistik va animistik qarashlariga, tuproqni tirik mavjudot deb bilish mental kodiga borib taqaladi. Lingvistik nuqtayi nazardan, sintaktik parallelizm va anafora ("yerni bosdilar", "yerni

toptadilar") matnning pragmatik ta'sir kuchini bir necha baravar oshirgan. Bu yerda muallif faqatgina ekologik holatni bayon etmayapti, balki u o'quvchini Yerga nisbatan qilinayotgan jinoyatni to'xtatishga chaqiruvchi ritorik metadiskurs yaratmoqda. Yer bu yerda tilsiz mazlum obrazida namoyon bo'ladi.

Tog'ay Murod "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida etnoekologik an'analarni til ortiga yashiradi. Muallif qo'llagan "yerning uvoli", "suvning uvoli" kabi lingvokulturemalar o'zbek xalqining islomiy va milliy qadriyatlariga asoslangan deontik modallikni yuzaga keltiradi. Bu til birliklari o'quvchida nafaqat tabiatga achinish hissini, balki o'z milliy va ekologik ildizlariga qaytish mas'uliyatini ham uyg'otadi. Natijada maydon modelining yadrodan uzoq zonasidagi badiiy matn o'zining perlokutiv kuchi bilan yadro zonasidagi quruq qonunlardan ko'ra kuchliroq ijtimoiy effekt beradi. Inson o'z Yeriga xiyonat qilar ekan, u o'zligiga va ilohiy qonuniyatlarga qarshi chiqqan bo'ladi, degan konseptual xulosa ilgari suriladi.

A.V.Golodnov konsepsiyasiga (ritorik metadiskurs nazariyasi) tayangan holda [Golodnov 1997, 4–12], tarixan shakllangan noto'g'ri jamoaviy va siyosiy amaliyot tilda mana shunday kuchli, ta'sirchan lingvoekologik metaforalar va pragmatik vositalarni yuzaga keltirishini ko'ramiz. Ijodkorlar o'z asarlari orqali jamiyatga kuchli deontik signal yo'llaydilar: tabiatga bo'lgan munosabatni o'zgartirmaslik – millat sifatida halokatga uchrash bilan barobardir. Tog'ay Murodning o'ziga xos sodda va takrori suratlardan iborat sintaktik uslubi o'quvchi psixologiyasiga qat'iy ta'sir etishning eng maqbul pragmatik vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Badiiy matnlarning pragmatik kuchi

Shunday qilib, badiiy matnlardagi ekologik diskurs faqat "yashil tabiat"ni, go'zal tog'laru daryolarni madh etuvchi passiv makon emas. U insonning tabiatga bo'lgan pragmatik, iste'molchilik munosabatidagi inqirozlarni va ularning ayanchli oqibatlarini tilning ichki yashirin imkoniyatlari, kognitiv freymmlar, metafora va ramzlar orqali fosh etuvchi faol mafkuraviy maydondir. Ushbu badiiy matnlar biz ishlab chiqqan sotsio-funksional maydon modelining "yadrodan uzoq" zonasida joylashsa-da, o'zining emotsional-ekspressiv ta'sir kuchi, obrazlilik va estetik tabiati bilan yadro zonasidagi quruq, sovuq qonun hujjatlari yoki raqamli statistik hisobotlardan ko'ra tinglovchi/o'quvchi ongiga kuchliroq pragmatik effekt beradi. Jamiyatda real va sog'lom ekologik tafakkur hamda

mas'uliyatni shakllantirishda badiiy matnlarning kognitiv kuchi beqiyosdir.

Ilmiy va huquqiy matnlar insonga aqliy majburiyat yuklasa, badiiy matn hissiy mas'uliyat uyg'otadi. O'tkir Hoshimovning realistik, psixologik tasvirlari va Tog'ay Murodning ekspressiv, milliy-ritorik uslubi ekologik diskursning til imkoniyatlari orqali naqadar xilma-xil va ta'sirchan ifodalanishi mumkinligini ko'rsatadi. Tilshunoslikda bunday matnlarni tadqiq etish, tilning ijtimoiy mas'uliyatini va yakunda uning tashqi dunyoni qutqarishdagi imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi. Badiiy asar tili orqali inson tabiat bilan qayta did-muloqotga kirishadi va o'z xatolarini anglab yetadi.

Xulosa

Ekologik diskurs va unga tegishli matnlar tipologiyasini XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek badiiy prozasi materiallari asosida kompleks kognitiv-pragmatik va lingvokulturologik tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Zamonaviy tilshunoslik tizimida ekologik diskurs murakkab, ko'p bosqichli va iyerarxik yadro-periferiya tamoyiliga asoslangan konseptual maydon modeli (field model) shaklini tashkil etadi. Bunda ilmiy-yuridik matnlar yadroni, OAV matnlari yadrooldini tashkil etsa, badiiy asarlar yadrodan uzoq zonada joylashib, sohaning emotsional-estetik va qadriyatli kontentini ta'minlaydi. Bu model tilshunoslikda ekologik yo'nalishdagi matnlarni tizimli o'rganishga imkon beradi.

2. O'tkir Hoshimov va Tog'ay Murod kabi ulkan ijodkorlarning romanlaridagi tabiat obrazlari, elementlari va hodisalari (kuz yomg'iri, loy, yer, sho'rlangan tuproq, suv) shunchaki an'anaviy lirik fon yoki tasviriy detal emas. Ular davrning ijtimoiy-ekologik, ma'naviy va siyosiy-mafkuraviy inqirozlarini badiiy jihatdan fosh etuvchi, inson fojiasini verballashtiruvchi muhim aksiologik va pragmatik komponentlar hisoblanadi. Til vositalari davr siyosatining ekologik jinoyatlarini fosh etuvchi qurolga aylangan va yuqori perlokutiv kuch kasb etgan.

3. Badiiy matn tarkibida ekologik mazmunning ifodalanish xususiyatlariga ko'ra aniqlangan va tizimlashtirilgan 7 ta funksional-kommunikativ matn tipi (ekologik-narrativ, tasviriy, argumentativ, didaktik, informativ, instruktiv va ekspressiv tiplar) zamonaviy filologiyada ekologik yo'nalishdagi badiiy va ijtimoiy matnlarni pragmatik, stilistik va kognitiv jihatdan to'g'ri tasniflash, ularning

lisoniy tabiatini yaxlit tizim sifatida baholash hamda matn lingvistikasini yangi tasniflar bilan boyitish imkonini beradi.

Adabiyotlar

- Алексеева, Л. М., и С. Л. Мишланова. 2002. *Медицинский дискурс: теоретические основы и практические аспекты*. Пермь.
- Баранов, А. Г. 2005. *Когнитивность текста: Взаимодействие когнитивных структур и языковых единиц*. Ростов-на-Дону.
- Голоднов, А. В. 2012. *Риторический метадискурс в экологической коммуникации*. Москва: Высшая школа.
- Jarimbetov, Q. 2014. *Ekologik tafakkurning badiiy talqini*. Toshkent: Fan.
- Hass-Zumkehr, U. 1998. *Text Genres and Ecological Discourse in German Linguistics*. Berlin: De Gruyter.
- Hoshimov, O'. 1994. *Tushda kechgan umrlar: Roman*. Toshkent: Sharq.
- Иванова, Е. В. 2007. *Экологическая метафора в медиадискурсе: Когнитивно-прагматический аспект*. Москва: Наука.
- Ломинина, З. И. 2011. *Когнитивный экологический текст (на материале английского и русского языков)*. Краснодар.
- Миронова, М. М. 2003. *Дискурсивный анализ институциональных текстов*. Санкт-Петербург.
- Tog'ay Murod. 1998. *Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi: Roman*. Toshkent: Sharq.

A cognitive-pragmatic study of environmental discourse in Uzbek fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad)

Shakhlo Naralieva¹

Abstract

This article comprehensively studies the conceptualization of ecological discourse in modern Uzbek literary prose from a cognitive-pragmatic and linguo-culturological perspective. The most striking examples of Uzbek novelism of the second half of the 20th century and the beginning of the 21st century — the novels “Lifes Passed in a Dream” by Utkir Hoshimov and “You Cannot Die in This World” by Togay Murod — were selected as the empirical object of the study. In the work, for the first time, 7 functional-communicative types of ecological texts were

¹ *Shakhlo Naralieva* – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Zhumabek Tashenev University, Republic of Kazakhstan.

E-mail: naralievas04@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5064-2605

For citation: Naralieva, Sh. 2026. “A cognitive-pragmatic study of environmental discourse in Uzbek fiction (based on the works of Utkir Koshimov and Togay Murad)”. *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 82 – 94.

classified in detail based on the materials of Uzbek genealogical texts, and a complex field model (field model) based on the core-periphery principle of ecological discourse was developed. The article reveals the assessment of images of natural phenomena and elements (rain, earth, water, soil) based on national cognitive models and mental stereotypes, their pragmatic function and deontic power in verbalizing social, cultural and ideological crises. The results of the research enrich the modern branches of linguistics, such as linguoecology, pragmalinguistics, and text linguistics, with new theoretical conclusions and methodological approaches.

Key words: *ecological discourse, cognitotype, field model, Uzbek novel, linguoecology, pragmalinguistics, axiological assessment, conceptualization, deontic modality, anthropocentrism, frame analysis, axiological scaling.*

References

- Alekseeva, L. M., i S. L. Mishlanova. 2002. *Meditinskiy diskurs: teoreticheskie osnovy i prakticheskie aspekti*. Perm.
- Baranov, A. G. 2005. *Kognitivnost teksta: Vzaimodeystvie kognitivnix struktur i yazykovix yedinis*. Rostov-na-Donu.
- Golodnov, A. V. 2012. *Ritoricheskiy metadiskurs v ekologicheskoy kommunikatsii*. Moskva: Visshaya shkola.
- Jarimbetov, Q. 2014. *Ekologik tafakkurning badiiy talqini*. Toshkent: Fan.
- Hass-Zumkehr, U. 1998. *Text Genres and Ecological Discourse in German Linguistics*. Berlin: De Gruyter.
- Hoshimov, O'. 1994. *Tushda kechgan umrlar: Roman*. Toshkent: Sharq.
- Ivanova, Ye. V. 2007. *Ekologicheskaya metafora v mediadiskurse: Kognitivno-pragmaticheskiy aspekt*. Moskva: Nauka.
- Lominina, Z. I. 2011. *Kogniotip ekologicheskogo teksta (na materiale angliyskogo i russkogo yazykov)*. Krasnodar.
- Mironova, M. M. 2003. *Diskursivniy analiz institutsionalnix tekstov*. Sankt-Peterburg.
- Tog'ay Murod. 1998. *Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi: Roman*. Toshkent: Sharq.